



# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 5 2024



гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**5-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Ibodullayeva S.M. "Kecha va Kunduz" romanida "Begonalik" tushunchasini ifodalovchi undalmalar .....	7
Haydarova G.M. O'zbek tilining izohli lug'atida yasama so'zlardan foydalanish holati .....	13
Axmadalisiyeva M. Sh. Ijodiy jarayonning mangullikka yo'g'rilishi .....	20
Sattorova Sh.R. Xorijiy tillarni badiiy adabiyot asosida o'qitishning ilmiy-nazariy tahlillari .....	25

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Davletmuratov Ж.К. Техникалық бағдардағы жоқарғы оқыў орынларында «Материалтасыу» пәнин оқытыўда педагогтың креативлигин арттырыўдың нәтийжелі жоллары .....	31
Ikromova M.X. Технология фанини ўқитишида рақамлаштирилган таълим ресурсларидан фойдаланишининг ўзига хос хусусиятлари .....	38
Aхмаджанов Д.Б. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий таълимотларидан ғозий омил сифатида фойдаланиши .....	44
Murtozayeva M.M. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning namoyon bo‘lishi va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik tendentsiyalari .....	51
Mavlanov Sh.Yu. Ta’lim jarayonida pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va ulardan foydalanish funktsiyalari .....	56
Qodirova M.A. Oliy ta’lim muassasalarining ingliz tili yo‘nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlantiruvchi omillar .....	62
Begmatova S.N. Tayanch kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta’lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biri sifatida .....	67
Choriyeva G.Sh. Biologik ekskursiyalar – o‘quv ishlarining tashkiliy shakli sifatida .....	70
Karimova N.A. Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pegagogik-psixologik xususiyatlari .....	76
Xalmuratov I.T. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlanrinish .....	80
Ergashev J.M. Didaktik o‘yinlarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati .....	85
Orimbetov N.T. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’mindaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....	92
Ochilov X.A. Oliy ta’lim muassasalarida rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning amaliyotdagi ahamiyati .....	98
Ismoilova Yu.T. Pedagogik muloqot jarayonidagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari .....	107
Sattorova M.A. Maktab ta’limida bo‘lajak defektolog mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantrish muammosi .....	114
Jumamurodova U.M., Aliqulov L.Sh. Pedagogika fanida qo‘llaniladigan interaktiv metodikalar .....	120
Xolboyev A.M. “Hamkorlik zanjiri” asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik jihatlari .....	124
Ahadov A.M. Modernizatsiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot xavfsizligini ta’minalash ko‘nikmalarini takomillashtirish omillari .....	131
Eshmurowdova G.X. Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarining tadqiq etilishi .....	137
Murodova F.G’. Og’zaki nutq malakasini baholash mazmuni, shakl vositalari va mezonlari. audio vizual dars tashkil etish .....	150
Suyunov I.E. Axborot kompetentligini rivojlantrish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy nutqini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida .....	154
Aляминов X.I. Таалабаларининг инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш омиллари .....	159
Mirzaboyev Yu .A. Kompetensiya va kompitentlikning pedagogik –psixologix xususiyatlari .....	164
Saxibov A.X. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini zamонавиy axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish .....	171



# ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

## “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA “BEGONALIK” TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI UNDALMALAR

*Ibodullayeva S.M.*  
*ChDPU, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va  
amaliyoti” kafedrasи o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** leksikologiya, stilistik effect, denotativ ma’no, leksema, lison, kanatativ ma’no.  
**Ключевые слова:** лексикология, стилистический эффект, денотативное значение, лексема, язык, канатативное значение.

**Key words:** lexicology, stylistic effect, denotative meaning, lexeme, language, canatative meaning.

**РЕЗЮМЕ:** Mazkur maqolada qo‘llaniladigan soha - badiiy adabiyot bilan uzbek bog‘liq holda bo‘lib bunda undalmalarning uslubiy-semantik, struktur-grammatik va uslubiy xususiyatlari haqida ma’lumot keltirilgan Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan obyektni bildiradi. Bu o‘rinda obyekt so‘zining ma’nosi keng bo‘lib, u kishi otlari, jonli va jonsiz predmetlar nomi, tabiat hodisalarini kabi tushunchalarni bildiradi. Shunday qilib, so‘zlovchining nutqi qaratilgan obyektning ifodasi bo‘lgan so‘z va so‘z birikmlari undalma bo‘lib keladilar.

**РЕЗЮМЕ:** Область, используемая в данной статье, неразрывно связана с художественной литературой, в которой даются сведения о стилистико-семантических, структурно-грамматических и стилистических особенностях импульсов. Здесь значение слова предмет широкое, и под ним подразумеваются такие понятия, как личные существительные, названия одушевленных и неодушевленных предметов, явлений природы. Таким образом, слова и словосочетания, выражающие предмет, на который направлена речь говорящего, приобретают повелительный характер.

**SUMMARY:** The area used in this article is inextricably linked with fiction, which provides information on the stylistic-semantic, structural-grammatical and stylistic features of impulses. Here, the meaning of the word object is broad, and it includes such concepts as personal nouns, names of animate and inanimate objects, and natural phenomena. Thus, words and phrases expressing the object to which the speaker’s speech is directed acquire an imperative character.

Jamiyat, unda faoliyat ko‘rsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish va taraqqiyotda bo‘lgani kabi ularning tili ham uzlusiz boyib borishi tabiiy bir holdir. Juda ko‘p asrlardan buyon o‘z xalqi va millatining aloqa vositasi bo‘lib kelayotgan o‘zbek tilining imkoniyatlari uning barcha ko‘rinishlarida yana ham kengaydi, zamonlar silsilasida, badiiy ijod jarayonida sayqal topdi. U endi o‘zbek xalqi uchun o‘zaro aloqa qilish, muloqotda bo‘lish va bir-birlariga



xabar uzagish vositasigina emas, balki yuksak badiiy-estetik tuyg‘uni ham ifodalaydigan va xuddi shunday ta’sir ko‘rsata va zavq bera oladigan nodir boylikka aylandi. Ana shu nodir boylikni, boshqacha qilib aytganda, ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini bugun nozikliklari bilan taxlil qilish va uni yana o‘zining ijodkori bo‘lgan xalqqa qaytarish o‘zbek tili stilistikasi fanining bosh vazifasi bo‘lib qoldi. Ushbu muhim vazifani hal etishga kirishishdan avval mazkur fanning mundarijasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur uslub qo‘llaniladigan soha - badiiy adabiyot bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy adabiyot stilistikasi tushunchasiga, adabiy janrlar, yozuvchi uslubi singari omillarga, Shuningdek, uning tilimizdagи boshqa uslublarga bo‘lgan munosabati ekstralengvistik omillarni belgilab beradi. Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan obyektni bildiradi. Bu o‘rinda obyekt so‘zining ma’nosini keng bo‘lib, u kishi otlari, jonli va jonsiz predmetlar nomi, tabiat hodisalarini kabi tushunchalarni bildiradi. Shunday qilib, so‘zlovchining nutqi qaratilgan obyektning ifodasi bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalari undalma bo‘lib keladilar. Undalmaning leksik-semantik xususiyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda ham xilma-xildir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek tilida mavjud darslik va qo‘llanmalarning ko‘pida undalmaning leksik-semantik xususiyatlari haqida deyarli hech nima deyilmagan. Faqat A.G. G‘ulomov va A. H. Sulaymonov o‘rtoqlar bu haqda qisqacha ma’lumot beradilar. Filologiya fanlari doktori A.G. G‘ulomov shunday yozadi: «Undalma kishi otlari, qarindoshlik otlari, yoshga qarab ishlatiladigan nomlar, holat, amal va shu kabilarni bildiruvchi so‘zlardan bo‘ladi» Akademik A.M.Peshkovskiy, A.A.Chaxmatov kabi rus olimlarining asarlarida, Shuningdek, SSSR Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti tomonidan nashr etilgan asarida ham undalma, uning leksik-semantik xususiyatlari haqida anchagina fikrlar bayon qilingan. Undalma bo‘yicha to‘plangan materiallarni o‘rganish va misollarni analiz qilish nutq qaratilgan obyekt nuqtayi nazaridan undalmani dastlab uch asosiy gruppaga bo‘lib tekshirish zarurligini ko‘rsatadi:

*Shaxslarga qaratilgan undalmalar.*

*Jonli predmetlarga qaratilgan undalmalar.*

*Jonsiz predmetlarga qaratilgan undalmalar.*

Shaxslarga qaratilgan undalma so‘zlovchi bilan tinglovchining munosabatini bildiradi. So‘zlovchi o‘z nutqiga tinglovchining diqqatini jalb qilish maqsadida unga murojaat qiladi. So‘zlovchi tinglovchini ishga undashi, da’vat etishi, jamiyatdagи yangiliklardan xabardor va xursand qilishi, qistashi va koyishi mumkin. So‘zlovchining shaxslarga undashi adabiy tilda, jonli tilda, xalq og‘zaki ijodida, ko‘pincha chaqiriqlarda, buyruqlarda va xitobnomalarda



uchraydi. Shaxslarga undash undalmaning boshqa turlariga niobatan ko‘p qo‘llaniladi. Shuning uchun bu gruppaga kiruvchi undalmalar ikkinchi va uchinchi gruppadagi undalmalarga qaraganda asosiy o‘rinni egallaydi.. Shaxslarga qaratilgan undalmalar dastavval ikki katta gruhga bo‘linadi.

1. Yakka shaxsga qaratilgan undalmalar.

2. Urumshaxsga qaratilgan undalmalar.

Yakka shaxs ma’nosini bildiruvchi undalmalar yolg‘iz. shaxsga (bir shaxsga) qaratilgan bo‘ladi. Bu undalmalar so‘zlovchining tinglovchiga undashi, Shuningdek, o‘z-o‘ziga murojaat qilishini ko‘rsatadi. Yakka shaxsga qaratilgan undalmalar ko‘pincha notiqlar nutqida, shaxsiy yozishmalarda, dialoglarda, o‘zaro suhbatlarda qo‘llaniladi. Yakka shaxsga qaratilgan undalmalarning o‘zi ham ikkiga bo‘linadi:

a) tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar;

b) so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan yakka shaxs undalmalar. Tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar so‘zlovchining suhbatdoshga (tinglovchiga) undashini bildiradi. Tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar ham o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: So‘zlovchining nutqi bevosita tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar: Jon o‘g‘lim, senga nima bo‘ldi, - xotiningni qarindoshlari oldida yerga qaratmoqchimisan? (S.Abdulla). Xabardor bo‘ling, yaxshi yigit, itingiz talamasin, - deb otliq qo‘rqa-qo‘rqa oldin yurdi (S.Ayniy). Shovqin solma, jiyanim, sestralarning shovqinidan qulog‘imda qulqoq qolgani yo‘q. Endi sen ham bormi? (A.Qahhor). So‘zlovchining nutqi bavosita (sirtdan) tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar yozma nutqda (xat, varaqa, xitob, shior kabilarda) qo‘llanadi: Jo‘ra aka! Agar Sizga malol kelmasa, bitta movut beretka olib yuborsangiz, chunki Toshkent qizlarining hammasiga beretka kiyish rasm bo‘lib ketgan (G‘.G‘ulom).

O‘TILda begonalik quyidagicha izohlanadi:

“BEGONALIK 1 Begona kishining holatiga tushishlik. U [Elmurod] kun sayin aka-uka, yor-og‘ayniga aylanib borayotgan kishilar orasida o‘zining begonaligini unuta bordi. P. Tursun, O‘qituvchi. Avvaliga yotsirash, begonalik uni qiyndadi. Keyin esa Mirzoni odamlarning o‘sha baland tog‘lardek ulug‘ qalbi, pokizaligi o‘ziga rom qilib oldi. «Yoshlik».

2 Yot, chet kishilarga xos bo‘lgan munosabat. [Gulsumbibi:] Begona har vaqt begonaligini qiladi. Qizim baxtli bo‘ladimi, o‘tda yonadimi, Mirzakarimboyga bari bir. Oybek, Tanlangan asarlar.”

*Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol justi Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o‘lguring qani?», Fitna, puldan uzat!»*



*Bu o'rinda fitna so'zi er kishining o'z xotiniga nisbatan qo'llanilayotgan bo'lsa-da, biroq ma'no jihatidan begonalikni ifodalaydi. O'TILda ushbu so'z quyudagicha izohlangan:*

"FITNA [a. – maftun etish; yo'lidan ozdirish; isyon, g'alayon] salb. G'arazli maqsadga erishish yo'lida birovni qoralash uchun qilinadigan yashirin xatti-harakat, buzg'unchilik. Fitna to'qimoq. Oraga fitna solmoq. Fitna qo'zg'amoq. Shu fitnani uyushtirgan odam Bo'taning savodsizligidan, uzoqni ko'rolmasligidan foydalanib, shu ishni qilgan. S. Ahmad, Hukm. Qorailon bilan o'ynashib bo'lmaydi! Amirzodalar orasiga nifoq solib, fitna bilan ne-ne kishilarni yoqalashtiradigan ham Qorailon! Mirmuhsin, Me'mor.

*2 Ma'lum siyosiy maqsadga erishish niyatida yashirin til biriktirish yo'li bilan davlatga, siyosiy rahbarga, tashkilotga yoxud shaxsga qarshi qilingan harakat. Fitna uyushtirmoq.*

*3 kam qo'll. ayn. fitnachi. Fitna odam. Bunday fitna xotinni ko'rmaganman. S. Zunnunova, Olov.*

*4 s. t. Urihqoq, janjalkash. O'zingiz bilasiz, fitna odamlar ko'p. A. Qahhor, Sarob. -Odamsodning fitnasi yomon bo'ladi. Ko'ngli ochiqlikka ne yetsin, – dedi Inog'omjon. Mirmuhsin, Umid.*

Gap mazmunidan ma'lum bo'ladiki, So'fi tomonidan o'zining turmush o'rtog'iga nisbatan qo'llagan "fitna" so'zi begonalikni ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida nomlardan keyin ota, opa, amaki, tog'a, xola, aka, uka va b. qarindoshlikni ifodalovchi otlarning qo'shilishi natijasida so'z birikmasi yasalishi keng tarqalgan. Ma'lumki, so'z birikmasi kamida ikkita mustaqil so'z turkumining intonatsion, grammatik, semantik birikishidan tashkil topadi. Lekin tarkibida yordamchi so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar) bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, undalmalarning juda katta qismi hokimi ot yoki otlashgan so'z bo'lgan so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Aytilgandek, so'zlovchining nutqi tinglovchiga, ya'ni ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shu sababdan undalma vazifasida faqatgina o'zbek tilida ikkinchi shaxs olmoshlari siz va sen ishlatiladi. Ingliz tilida esa, ikkinchi shaxslar faqatgina you olmoshi bo'lganligi uchun faqatgina shu olmosh undalmani ifodalashi mumkin. Olmoshning undalma sifatida ishlatilishi odatda so'zlovchining tinglovchi ismini bilmagan holatda yoki uning ismini esidan chiqarib qo'ygan holatda, so'zlovchining uzoqroq masofada turganligida ishlatiladi.

Undalma undov so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Undov so'zlar nutqni ta'sirchan bo'lishi uchun undalma bilan birga keladi, ba'zan undalma vazifasida kelgan so'z tushib qolib, uning o'rnini, undov so'zlar egallaydi.



O‘zbek oilasida kelin qaynonasiga oyijon, qaynotasiga dadajon deb murojaat qiladi. Ingliz tilida esa bunday hollarda erkalash qo‘sishchasi qo‘shilmaydi.

Oyijon, uyimga borib kelsam maylimi? (kinofilmdan)

Dadajon, sizni oyijonim chaqiryaptilar. (kinofilmdan)

Qarindosh-urug‘chilik atamalari haqida gapirilganda, shuni aytish kerakki, ular begonaga nisbatan ishlatilganda, ijobiy munosabat ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosi M.Rashidovaning ta‘kidlashicha paydo bo‘lishiga qarab, laqablar juda qadimiyligi, funksional zahirasi keng, boy, ma’naviy, uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklardan biridir. Laqablar bir tomondan, lahja, ikkinchi tomondan, badiiy adabiyot tilining betakror uslubiy vositalaridir. Laqablar o‘z vazifasi, funksional mezoniga ko‘ra kishi ismlari, familiyalar, ota ismlari bilan uzbek bog‘liq bo‘ladi.

Ish jarayonida yuqori lavozimli shaxs qo‘l ostidagi xizmatchilarni ismi yoki ismi va familiyasi bilan (agar u notanishroq xizmatchi bo‘lsa) chaqiradi.

Ma’lumki, so‘zlar leksik-grammatik guruahlarga, ya’ni, ot, fe’l, son, sifat, olmosh, ravish va b. turlarga bo‘linadi. Undalmalar biror shaxsga qaratilganligi uchun uning vazifasini nazariy jihatdan faqat shaxs ifodalovchi otlar bajara oladi. Ammo stilistik talablarga ko‘ra undalmalar vazifasini shaxs ifodalamaydigan otlar ham ifodalashi mumkin. Bir qancha tillarda undalma bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatdiki, undalma ko‘pincha antroponiimlar bilan ifodalanadi.

Antroponiimlar – shaxs nomlaridir. Ular asosan ism, familiya, ota ismi, laqab va tahalluslarga bo‘linadi. Antroponiimlar lingvokulturemalarning yorqin turi hisoblanib, ular millat haqida ma’lumot beradi. Shuning uchun ular ekvivalentsz leksika hisoblanadi.

Kontekstda kelgan undalmalar yondosh gap bilan yoki uning bo‘laklari bilan semantik munosabatga kirishadi. Bu munosabat undalma va gap bo‘laklari ifodalagan referentlarning aynan bir xilligida sodir bo‘ladi. Bunday hodisa matn tilshunosligida yoki “qayta atash” deb ataladi. Har ikkala tilda yondosh gap, yondosh sintaktik birlik:

- 1) sodda gap (darak, so‘roq, buyruk, emotsiyonal);
- 2) murakkablashgan gap;
- 3) ergachgan qo‘shma gap;
- 4) boglangan qo‘shma gap;
- 5) murakkab sintaktik butunlik;
- 6) matn bo‘lishi mumkin. Undalmalar har ikkala tilda asosan dialoglarda, poliloglarda, suhandonlikda, notiqlikda, e’lon va bildirishlarda ishlatiladi.

*Hoy, bolalar, senga aytaman! – deb qichqirdi mingboshi.*



Ushbu o‘rinda kelgan undalma semantik jihatdan begonalikni ifodalab kelmoqda.

Odatda bir undalma bir vaqtning o‘zida bir qancha vazifa bajaradi. Buni “vazifalar sinkretizmi” deb atadik. Lekin bunda bir vazifa boshqa vazifalarga nisbatan muhimroq bo‘ladi. Undalma lingvokulturemalardan biri sanalib, nutq etikeliali tarkibiga kiradi. Undalma universal sintaktik birlik bo‘lib, u har qanday tilda keng ishlataladi. Buning sababi muloqot bo‘lishi uchun kamida ikki kommunikant – so‘zlovchi va tinglovchi – bo‘lishi shart ekanligidadir. Bunda undalma adresatni (tinglovchini) ifodalaydi. Undalmalar kichik sintaktik tizimni hosil qiladi. Bu tizim ichidan nutq jarayonida ma’lum bir undalma shaklini tanlab olish nutq vaziyatiga, kommunikantlarning ijtimoiy maqomiga, yoshiga, bir-birlarini yaxshi tanishiga, do‘stona munosabati darajasiga, qarindoshlik darajasiga, jinsiy farqiga, axloqiga, kayfiyatiga, millatiga, suhbat mavzusiga, bir-biriga nisbatan turgan masofasiga, muloqot davrida nutq qaratilgan shaxsning ko‘rinib turganligi yoki ko‘rinmayotganligiga, muloqot joyiga, tinglovchining ismi so‘zlovchiga ma’lum yoki noma’lum bo‘lganligiga bog‘liq holda tanlanadi. Demak, undalmani muloqotda tanlash va uni tushunish kommunikantlardan muayyan bilimni talab qiladi

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Абдиев М. Соҳа лексикасини система сифатида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. - 177 б.
2. Абдуллаева М., Аликулов Х., Жалолов А., Назаров Қ.Қисқача фалсафа лугати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. – 88 б.
3. Абдураҳмонова Н. Машина таржимасининг лингвистик та’миноти. (монография). – Тошкент: Нодирабегим, 2018.1756.
4. Абжалова М. Таҳрир ва таҳлил дастурларининг модуллари. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 174 6.
5. Аминов М., Ахмедов Б., Каримов Н., Кароматов Х., Орипов А., Шагулямов Ш., ва б. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. XII жилд. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2000-2006. – Б. 216.
6. Allaberdiyeva U. Milliy brending xususiyatlari // Korxonani boshqarish – 2012. – №11-12(65-66).